

**O'ZBEKISTON VA KOREYA O'RTASIDAGI HAMKORLIK ALOQALARI:
KECHA VA BUGUN**

Urunkov Xasan Rayimovich

Samarqand Shahar 78-maktab Tarix fani o'qituvchisi

<https://orcid.org/0009000331364878>

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston va Koreya o'rtasidagi hamkorlik aloqalarining savdo-iqtisodiy va siyosiy sohalariga oid bo'lgan hozirgi kundagi va yaqin o'tmishdagi ma'lumotlari tahlili keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Janubiy Koreya, O'zbekiston, BMT, Strategik shartnoma, O'zbekiston-Janubiy Koreya, Markaziy Osiyo, EKOSOS, Osiyo, Tinch okean, Investitsiya, Diplomatik aloqalar, Seul, Toshkent, Prezident, Jahan meteorologiya tashkiloti.

KIRISH: O'zbekistonning tashqi siyosatida tenglik, o'zaro ishonch kabi jihatlarga alohida e'tibor qaratiladi. Albatta yurtimizning xalqaro munosabatlari muhim ahamiyatga ega davlatlar ham mavjud. Ana shunday davlatlardan biri bo'lgan Janubiy Koreya O'zbekiston bilan o'zaro strategik sheriklardir. Tarixda ikki xalq va ikki mintaqa o'rtasida aloqalarning mavjudligi o'z tasdig'ini topgan bo'lsa, o'tgan asrning 90-yillaridan boshlab munosabatlar jadallahdi va o'zaro ishoncga asoslandi. Janubiy Koreya yuksak darajada taraqqiy etgan, ulkan iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, innovatsion va intellektual salohiyatga ega davlat bo`lib uning fan va texnik yutuqlari mamlakatimiz uchun judayam muhim. Koreya Respublikasi O'zbekiston Respublikasi va uning tashqi siyosiy-iqtisodiy aloqalari uchun muhim davlatlardan hisoblanadi.

Davlatlarimiz o'rtasidagi diplomatik aloqalar 1992 yil yanvar oyida o'rnatilgan. 2006 yildan buyon davlatlarimiz o'rtasida hamkorlik aloqalari Strategik sheriklik darajasiga ko'tarilgan. Janubiy Koreya O'zbekiston tashqi savdosida yuqori ulushga ega bo'lgan 5 davlatdan biri bo'lib mazkur maqola davlatlarimiz o'rtasidagi aloqalarni o'rnatilish tarixi, rivojlanish tendensiyalari, siyosiy, savdo-iqtisodiy yo'naliishlarda hamkorlik masalalari keng yoritilgan. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng jahon hamjamiyatining teng huquqli a'zosiga aylandi. Tashqi siyosatda mustaqil O'zbekiston tez sur'atlarda rivojlanayotgan Koreya Respublikasi bilan ham yaqindan hamkorlik qilishga urg'u bermoqda.

Koreya Respublikasi O'zbekistonning mustaqilligini birinchilardan bo'lib, ya'ni 1991 yilning oxirlarida tan olgan, diplomatik aloqalar 1992 yil 29 yanvarda o'rnatilgan. O'tgan yillar davr mobaynida har ikki tomon davlat rahbarlari o'rtasida oliy darajadagi 17 ta uchrashuv o'tkazilgan. Ushbu uchrashuvlarning har birida tomonlar siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar aloqalarni rivojlantirish yuzasidan muhim kelishuvlarga erishganlar.

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

III son, Fevral

O'zbekiston va Koreya Respublikasi o'zaro munosabatlarni yanada mustahkamlash maqsadida 2006 yilda mamlakatlarimiz o'rtasida Strategik sheriklik to'g'risidagi Qo'shma deklaratsiya imzolandi.

2014 yilda esa Strategik sheriklikni yanada rivojlantirish va chuqurlashtirish to'g'risidagi qo'shma deklaratsiya imzolandi. Ushbu hujjat respublikalar o'rtasidagi siyosiy, savdo-iqtisodiy hamda madaniy-gumanitar sohalarda munosabatlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish imkonini yaratdi.¹

So'nggi yillar davomida O'zbekiston-Janubiy Koreya munosabatlari ikki davlat rahbarlari o'rtasidagi siyosiy muloqotga asoslangan holda sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. 2017 va 2019 yillarda amalga oshirilgan o'zaro davlat tashriflari natijasida imzolangan hukumatlararo bitimlar va tijorat shartnomalarining umumiy miqdori 22 milliard dollarni tashkil etdi. 2019 yilda mamlakatlarimiz o'rtasidagi munosabatlar "alohida strategik sheriklik" darajasiga ko'tarildi.

Janubiy Koreyaning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdo aylanmasida O'zbekistonning ulushi qariyb 50 foizni tashkil etadi. Rasmiy Seulning O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb etgan investitsiyalari hajmi yildan yilga oshib bormoqda. Bunga asosiy sabab bir-biriga nisbatan hamda ishonchli sherikchilik munosabatlarida yakdillik siyosatining rivojlanishidandir. 2019 yili Janubiy Koreyaning farmatsevtika kompaniyalari 18,6 milliard dollarlik ko'rsatkich bilan Osiyoda uchinchi o'rinni egalladi. Koreya Respublikasi dori vositalarini ishlab chiqarish hajmini oshirish orqali dunyoning etakchi davlatlari safiga kirishni rejalashtirayapti.

O'zbekiston, o'z navbatida, farmatsevtika sohasiga ixtisoslashtirilgan ettita erkin iqtisodiy zonani rivojlantirish bo'yicha faol ish olib bormoqda. Shuning uchun ham O'zbekiston va Janubiy Koreyaning mazkur sohadagi hamkorligi amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi. 1995-yilda Koreya Respublikasi Milliy Assambleyasida—Koreya-O'zbekiston do'stlik Assosatsiyasi tuzildi. 2005-yilda Oliy Majlis Qonunchilik palatasida Koreya bilan hamkorlik bo'yicha maxsus guruuh ta'ssis etildi.²

Parlamentlararo almashinuv sohasida ham munosbatlar yo'lga qo'yilishi o'zining natijalarini bera boshladi. Ikki mamlakat parlamentlari muntazam uchrashuvlar o'tkazib kelmoqda, bu esa mamlakatlar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Munitsipal darajada yaqin aloqalar o'rnatiligan bo'lib, ushbu doirada Toshkent va Seul, Farg'ona va Yongin, Namangan va Songnam, Samarqand va Kyongju, Toshkent viloyati va Kyonsan-Pukto hamkorlik kelishuvlari mavjud.

Koreya Eksimbanki hamda Iqtisodiy taraqqiyot va hamkorlik fondi (EDCF) bilan ko'p yillik samarali hamkorlik alohida diqqatga sazovor. Masalan, ushbu jamg'arma doirasidagi moliyalashtirish hajmi 1 milliard dollarga etkazildi. Koreyaning xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) bilan sermahsul sheriklik ham kengaymoqda. yaqin davrga mo'ljallangan

¹ <https://review.uz/uz/post/ozbekiston-va-koreya-respublikasi-ortasidagi-hamkorlik-natijalari>

² <http://parliament.gov.uz/uz/> 1=50O Obidjonov B: Mushtarak maqsadlar va qadimiy do'stlik rishtalari

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

III son, Fevral

hamkorlikda uchta assosiy yo'nalish: — yashil taraqqiyot, raqamlashtirish va ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash masalalari kun tartibida.³

Prezident Shavkat Mirziyoev O'zbekistonning inson kapitali va tabiiy resurslari Koreya Respublikasining istiqbolli texnologiyalari va bilimlari bilan birlashsa, jahon bozorida talab yuqori bo'lgan mahsulot ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun yaxshi zamin yaratish mumkinligini alohida ta'xidladи.

Xalqaro tashkilotlar doirasidagi hamkorlikda O'zbekiston Respublikasi bugungi kunga qadar Koreya Respublikasining barcha tashabbuslarini qo'llab-quvvatlab kelgan. Xususan, BMT ning irqiy kamsitishni bartaraf etish bo'yicha Qo'mitasiga (2018 –2021 yillar), EKOSOS (2016 y.), inson huquqlari Kengashiga (2013 – 2015 y. va 2016 – 2018 y.), xalqaro huquq Komissiyasiga (2017 – 2021 y.), BMTning xalqaro savdo huquqi bo'yicha komissiyasiga (2013-2019 y. va 2019-2025 y.), xalqaro telekommunikatsiya Ittifoqi Kengashiga (2010 – 2014 y., 2014 – 2018 y. va 2018 – 2022 y.), xalqaro telekommunikatsiya Ittifoqi Kengashi telekommunikatsiya standartlashtirish byurosi direktorligiga (2014 y.), Jahon meteorologiya tashkiloti Ijroiya Kengashi a'zoligiga (2011 y., 2015 y., 2019 y.) ilgari surgan nomzodlarini qo'llab quvvatladi.⁴

O'z navbatida rasmiy Seul ham BMT Bosh assambleyasi doirasida O'zbekistonning tashabbusi bilan 2018-yilda qabul qilingan ikkita, ya'ni "Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va barqaror taraqqiyotni ta'minlash bo'yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash" hamda "Ta'lif va diniy bag'rikenglik" rezolyusiyani qo'llab-quvvatladi va unga hammulliflik qildi. Shuningdek, Janubiy Koreya 2021 – 2023-yillar davomida O'zbekistonning BMT inson huquqlari Kengashiga nomzodini qo'llab-quvvatladi.

Hamkorlikning shartnomaviy – huquqiy asoslariga to'xtalsak, respublikalar o'rtaida 181 ta hujjat imzolangan bo'lib, ulardan 4 tasi davlatlararo, 53 tasi hukumatlararo, 75 tasi idoralararo va 49 tasi boshqa hujjatlar (xalqaro shartnomaga maqomiga ega bo'lmagan xalqaro hujjatlar). Koreya Respublikasi O'zbekistonning Osiyo-tinch okeani mintaqasi davlatlari savdo hamkorlari orasida yetakchi o'rinnarni egallaydi. Xususan, 1992-yilda imzolangan savdo bitimiga muvofiq mamlakatlar o'rtaida eng qulay afzalliklar rejimi o'rnatilgan. Ikki

³ Diyor Orifovich Mamatov. O'ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA: O'ZARO HAMKORLIK ALOQALARI VA ISTIQBOLLARI. Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 4 | 2022 ISSN: 2181-1385 Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,12 DOI: 10.24412/2181-1385-2022-4-707-711 SJIF: 5,7 | UIF: 6,1 707 April, 2022 https://t.me/ares_uz Multidisciplinary Scientific Journal

⁴ Ilyos Ismoilovich Oqbo'tayev. O'ZBEKISTON VA KOREYA O'RTASIDAGI DIPLOMATIK MUNOSABATLAR. Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 12 | 2022 ISSN: 2181-1385 Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,12 | ASI-Factor: 1,3 | SJIF: 5,7 | UIF: 6,1 620 December, 2022 https://t.me/ares_uz Multidisciplinary Scientific Journal

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

III son, Fevral

davlat o`rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlar yildan yilga o`sib borishi tomonlar o`rtasidagi munosabatlar mustahkam “poydevor”ga egaligi bilan ajralib turadi.⁵

Bugungi kunga qadar KOICAning texnik hamkorligi doirasida O`zbekiston vazirliklari va idoralarining 2 000 dan ortiq vakillari Koreya Respublikasida tahlil oldi hamda 70 dan ortiq koreyalik ekspertlar hamda 500 dan ortiq ko`ngillilari O`zbekistonda o`z missiyasini amalga oshirdi. 2007-yildan buyon davlatlarimiz o`rtasida mehnat migratsiyasi sohasidagi hamkorlik doirasida Bandlikka ruxsat berish tizimi bo`yicha 31,5 mingdan ortiq O`zbekiston fuqarosi Janubiy Koreyaga yuborildi. Hozirgi kunda Janubiy Koreyada 17 mingga yaqin o`zbekistonliklar mehnat qilmoqda. Har yili Koreya Hukumati tomonidan O`zbekiston uchun 3 – 3,2 ming kishi atorofida kvota ajratiladi.

Tomonlar investitsion hamkorlik bo`yicha ham ulkan yutuqlarga erishib kelmoqda. Xususan, 1992-2020 yillar mobaynida Koreyaning O`zbekiston iqtisodiyotiga jalb qilingan to`g`ridan – to`g`ri investitsiyalari hajmi 7 milliard AQSh dollardan ortiq. Koreya investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar soni esa 875 tani tashkil qilib, ulardan 539 tasi – 100% Koreya kapitali ishtirokida shakllantirilgan. Ushbu korxonalarning faoliyati asosan savdo, yengil sanoat, tog`-kon, kimyo, oziq – ovqat sanoatlariga, mashinasozlik va metalga ishlov berish, uy-joy-kommunal xo`jaligi, sog`liqni saqlash, turizm va xizmatlar sohalariga ixtisoslashgan.

Bugung kunda, hamkorlikning yangi yo`nalishi sifatida O`zbekiston Respublikasi va Janubiy Koreya o`rtasidagi tashqi savdo aylanmasining nomutanosibligini tenglashtirish hamda eksport-import operatsiyalari nomenklaturasini diversifikatsiya qilish maqsadida ikki davlat o`rtasida Erkin savdo to`g`risida bitim imzolanishi bo`yicha muzokaralar olib borilmoqda.

O`zbekiston bilan Erkin savdo to`g`risida bitim imzolanishi to`g`risida Koreya Respublikasi Prezidenti 2020 yil 31 dekabrda Koreya xalqiga yo`llagan yangi yil tabrigida ham alohida to`xtalib o`tdi.⁶

XULOSA: Umuman olganda, diplomatik aloqalar o`rnatalgandan buyon Koreya Respublikasi barcha yo`nalishlarda, xususan amalga oshirilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy o`zgarishlarda, xalqaro masalalalarda O`zbekistonning sinalgan, ishonchli strategik hamkoriga aylandi. O`z navbatida O`zbekiston bilan siyosiy, iqtisodiy jabhalarda keng aloqalarni yo`lga qo`yish Koreya tomoni manfaatlariga ham to`la mos keladi. Bundan kelib chiqqan holda tomonlar yaqin va uzoq istiqbolda ikki tomonlama aloqalarini yanada rivojlantirish va mustahkamlashga harakat qiladilar.

⁵ Ilyos Ismoilovich Oqbo'tayev. O'ZBEKISTON VA KOREYA O'RTASIDAGI DIPLOMATIK MUNOSABATLAR.

Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 12 | 2022 ISSN: 2181-1385 Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,12 | ASI-Factor: 1,3 | SJIF: 5,7 | UIF: 6,1 620 December, 2022 https://t.me/ares_uz Multidisciplinary Scientific Journal

⁶ O`zbekiston – Janubiy Koreya: strategik sheriklikning yangi bosqichi. Vendredi, 2017 yil 24-noyabr. <https://www.un.int/uzbekistan/fr/news/uzbekistan-%E2%80%93-south-korea-new-stage-strategic-partnership#>

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

III son, Fevral

O'zbekiston va Koreyaning ko'plab masalalar yuzasidan qarashlari o'xshashdir. Mamlakatlarimiz xalqaro maydonda bir-biriga ko'maklashmoqda. Ikki tomon rahbarlari o'zaro manfaatli hamkorlikning istiqbolli loyiha va dasturlarini ilgari surish maqsadida parlamentlar va hukumatlar darajasidagi muloqotning yangi samarali mexanizmlarini joriy qilishni taklif etdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://review.uz/uz/post/ozbekiston-va-koreya-respublikasi-ortasidagi-hamkorlik-natijalari>
2. <http://parliament.gov.uz/uz/> 1=50 Obidjonov B: Mushtarak maqsadlar va qadimiy do'stlik rishtalari
3. Diyor Orifovich Mamatov. O'ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA: O'ZARO HAMKORLIK ALOQALARI VA ISTIQBOLLARI. Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 4 | 2022 ISSN: 2181-1385 Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,12 DOI: 10.24412/2181-1385-2022-4-707-711 SJIF: 5,7 | UIF: 6,1 707 April, 2022 https://t.me/ares_uz Multidisciplinary Scientific Journal
4. Ilyos Ismoilovich Oqbo'tayev. O'ZBEKISTON VA KOREYA ORTASIDAGI DIPLOMATIK MUNOSABATLAR. Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 12 | 2022 ISSN: 2181-1385 Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,12 | ASI-Factor: 1,3 | SJIF: 5,7 | UIF: 6,1 620 December, 2022 https://t.me/ares_uz Multidisciplinary Scientific Journal
5. O'zbekiston – Janubiy Koreya: strategik sheriklikning yangi bosqichi. Vendredi, 2017 yil 24-noyabr. <https://www.un.int/uzbekistan/fr/news/uzbekistan-%E2%80%93-south-korea-new-stage-strategic-partnership#>